Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317896

III-Sho‘ba

MOLIYAVIY BOZORLAR - MOLIYAVIY AKTIVLARNING SAVDO QILINISHI UCHUN PLATFORMA SIFATIDA

Туйчиев Абдурахмон Ғофурович,
доцент, и.ф.ф.д.,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети.
abdurahmon69@inbox.ru
Abdumutaliyev Azamat Ahadjon o’g’li
TDIU, Andijon fakulteti, 2-bosqich,
ATT 70/23 guruh talabasi
Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли
АКХАИ бухгалтерия хисоби ва аудит йуналиш талабаси

Moliyaviy bozorlar iqtisodiy subyektlar o’rtasidagi moliyaviy aktivlarning savdo qilinishi uchun platforma hisoblanadi. Ular, asosan, uchta asosiy funktsiyani bajaradi:

-resurslarni taqsimlash: Moliyaviy bozorlar resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi, ya’ni ortiqcha mablag’ga ega bo’lgan iqtisodiy subyektlar o’z pullarini moliyaviy bozorlarda investitsiya qilish orqali kam mablag’ga ega bo’lgan subyektlarga uzatadi. Ushbu jarayon iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlaydi, chunki kapital taqsimlanishi korxonalar va loyihalar rivojiga hissa qo’shadi.

-riskni boshqarish: Moliyaviy bozorlar xavflarni boshqarish uchun turli vositalarni taqdim etadi, jumladan, derivativlar, sug’urta va boshqa moliyaviy instrumentlar. Bu vositalar moliyaviy subyektlarga potensial xavflarni kamaytirish va o’zlarining moliyaviy faoliyatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

-likvidlik ta’minoti: Moliyaviy bozorlar kapitalning likvidligini ta’minlaydi, ya’ni aktivlarni tez va qiyinchiliksiz naqd pulga aylantirish imkonini beradi. Bu bozorlar kapital oqimlarini tezkor va samarali tarzda taqsimlashga imkon beruvchi platformani taqdim etadi, bu esa iqtisodiyotni dinamik va barqaror saqlaydi.

Moliyaviy bozorlar iqtisodiy o’sish uchun zarur bo’lgan vositalarni taqdim etadi. Moliya bozorlarining rivojlanganligi va samaradorligi iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlaydi, bu esa iqtisodiy faoliyatning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, jahon bankining 2020 yilgi hisobotida moliyaviy bozorlarning iqtisodiy o’sishga ta’sirini ko’rsatuvchi bir qancha statistikalar keltirilgan. *Jumladan,* rivojlangan davlatlardagi moliyaviy bozorlarning iqtisodiy o’sishni o’rtacha 1-2 % ga tezlashtirishi mumkinligi aniqlangan.

Published: 24.05.2025

Cite this article: Туйчиев Абдурахмон Ғофурович, Abdumutaliyev Azamat Ahadjon o’g’li, Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли (2025). Moliyaviy bozorlar - moliyaviy aktivlarning savdo qilinishi uchun platforma sifatida. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317896

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Moliyaviy bozorlarning iqtisodiyotga ta’sirini o’rganish bilan bog’liq tadqiqotlar natijalari, *shuni ko’rsatadiki,* rivojlangan mamlakatlar, *jumladan,* Xitoy va Hindiston singari davlatlarda moliyaviy bozorlarning o’sishi va liberallashtirilishi, ushbu davlatlarning iqtisodiy o’sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko’rsatgan. Moliyaviy bozorlarga moliyaviy resurslarni keng jalb qilish natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarni hajmini oshirgan, ishlab chiqarish hajmini kengaytirgan hamda yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishni rag’batlantirgan.

Bundan tashqari moliyaviy bozorlarning iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini haqidagab borsa, quyidagilarni aytish mumkin:

-moliyaviy bozorlarning barqarorligi iqtisodiy barqarorlik uchun juda muhimdir. Moliyaviy bozorlarning ishonchli ishlashi nafaqat iqtisodiy o’sishni ta’minlashda, balki iqtisodiy inqirozlar va tushkunliklarning oldini olishda ham katta ahamiyatga ega;

-moliyaviy tizimda yuzaga keladigan beqarorlik yoki krizislar global iqtisodiyotga katta zarar yetkazishi mumkin. Amaliyotda 2008-2010 yillardagi global moliyaviy inqiroz bu masalaning dolzarbligini yaqqol ko’rsatib bergan;

-inqirozlar ko’pincha moliyaviy bozorlar ortiqcha ishonch yoki spekulyativ operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. *Masalan,* 2008 yilda AQShdagi moliyaviy inqiroz ko’chmas mulk bozoridagi spekulyatsiyalar va ipoteka bo’yicha xavfli kreditlarning to’planishi tufayli paydo bo’ldi. Natijada moliyaviy tizim beqaror bo’lib, global iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazdi. Jahon iqtisodiyoti 2009 yilda 1.3% ga qisqardi, bu esa moliyaviy bozorlar va real sektor o’rtasidagi kuchli bog’liqlikni ko’rsatadi.

Moliyaviy bozorlar faoliyatida ichki muvozanat hamda barqarorlikni ta’minlashda davlat hukumati va markaziy banklari tomonidan kuzatuv va nazorati faoliyatini doimiy amalga oshirib borilishi maqsadga muvofiqdir, chunki, banklarning likvidliligi ta’minlash va moliyaviy bozorlardagi asossiz spekulyatsiyalarni cheklash orqali moliyaviy tizimni barqarorlashtirishda muhim rol o’ynaydi.

Jahon amaliyoti ko’rsatishicha, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi davrida ko’plab davlatlar moliyaviy bozorlarni qo’llab-quvvatlash maqsadida keng qamrovli monetar va fiskal choralar ko’rdilar. AQSh Federal Rezervi trillionlab dollarlarni iqtisodiyotga kiritish orqali bozorlar barqarorligini saqlashga harakat qildi. Moliyaviy bozorlarning iqtisodiyotga ta’sirini tushunish uchun bir qator misollar keltirish mumkin. Misol tariqasida AQSh va Germaniya iqtisodiyotlarini tahlil qilish mumkin. AQSh moliyaviy bozorlarining kuchi ushbu davlatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. 2021 yilga kelib, AQShdagi moliyaviy bozorlarning umumiy kapitalizatsiyasi dunyo bozorlarining 40% dan ortig’ini tashkil etdi. Bu esa AQSh

kompaniyalariga katta hajmdagi kapitalni jalb qilish imkonini berdi, bu bilan texnologik gigantlar, startaplar va innovatsion kompaniyalarning rivojlanishini qo’llab-quvvatladi.

Germaniya iqtisodiyoti ham kuchli moliyaviy tizimga ega. Germaniyaning fond bozori Yevropadagi eng rivojlangan bozorlardan biri hisoblanadi. Ushbu bozor ko’plab xalqaro sarmoyadorlarni jalb qiladi.

Moliyaviy bozorlarning kelajakdagi barqarorligini tahminlash, uni rivojlanishi hamda global iqtisodiyotga ta’siri bo’yicha bir qator bashoratlar mavjud.

Ekspertlarning fikriga ko’ra, kelgusida moliyaviy bozorlar tobora ko’proq raqamlashtirilgan bo’lib, texnologik innovatsiyalar va fintech kompaniyalarining roli oshadi. Bu esa bozorlardagi operatsiyalar samaradorligini oshiradi, ammo ayni vaqtda kiberxavfsizlik va texnologik infratuzilmaning ishonchliligi muhim omillarga aylangan.

Bundan tashqari, moliyaviy bozorlar barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda ham katta rol o’ynaydi. So’nggi yillarda ESG (Environment, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar keng ko’lamda ommalashmoqda. ESG investitsiyalari moliyaviy bozorlarga nafaqat iqtisodiy manfaatlar uchun, balki ekologik va ijtimoiy maqsadlar uchun ham sarmoya kiritishni rag’batlantiradi. 2023 yilda ESG fondlari global investitsiyalar umumiy hajmining 20% dan ortig’ini tashkil etdi va bu ko’rsatkich yildan-yilga oshishi kutilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, moliyaviy bozorlar zamonaviy iqtisodiyotning asosi bo’lib, ular moliyaviy aktivlarning savdo qilinishi uchun platforma sifatida xizmat qiladi, shiningdek, iqtisodiy o’sish va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Ular kapital oqimlarini samarali taqsimlash, risklarni boshqarish va likvidlikni ta’minlash orqali iqtisodiyotning har bir segmentiga ta’sir ko’rsatadi. Rivojlangan moliyaviy tizimlarga ega mamlakatlar o’z iqtisodiyotlarida yuqori darajada o’sish va innovatsiyalarni kuzatishadi, bu esa ularning global bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Moliyaviy bozorlar iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi va ular orqali iqtisodiy resurslar oqimi, sarmoyalar va innovatsiyalar rivojlanadi. Ularning to’g’ri ishlashi iqtisodiy barqarorlik va o’sishni ta’minlaydi, lekin noto’g’ri boshqarilsa, keng miqyosdagi iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy bozorlarni yanada samarali boshqarish va rivojlantirish global iqtisodiy farovonlik uchun ustuvor vazifa bo’lib qoladi.

Moliyaviy bozorlarning iqtisodiy barqarorlik va o’sishdagi roli shubhasiz katta, ammo bu bozorlarning kelajakdagi o’sishi va rivojlanishi ko’plab omillarga, *jumladan*, davlat siyosati, texnologik taraqqiyot va global iqtisodiy sharoitlarga ham bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikov T. Moliya: amaliy jihatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Nihol-print”, 2022. -428 b. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
2. Malikov T. Moliya: Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Nihol-print”, 2023. -508 b.
3. Axunova Ye. Finansы. Uchebnik. Chast I. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 320 s.
4. Tuychivev, A. G. (2019). Mejdunarodnыe i regionalnыe tendensii i problemы finansirovaniya innovatsiy i ix transferta v malыy biznes. Finansovыy menedjment, (5), 62-71.
5. Tuychiyev A.G. Financing innovative development projects. Multidisciplinary and multidimensional journal, 2023.

MOLIYA TIZIMINING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Tuychiyev Abduraxmon G‘ofurovich
Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti
a.tuychiyev69@gmail.com
Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли
АКХАИ бухгалтерия хисоби ва аудит йуналиш талабаси

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o’rni, davlat byudjetini samarali boshqarish, moliyaviy resurslarni yanada adolatli taqsimlash, davlatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati, moliya tizimining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlash orqali davlat byudjeti va boshqa moliyaviy resurslarni optimallashtirish, inflyatsiya, valyuta kurslari o‘zgarishi va boshqa iqtisodiy muammolarga qarshi kurashish orqali mamlakatning moliyaviy barqarorligini saqlashdagi roli va ahamiyati ko’rsatib berilgan.

Kalit so‘z: Moliya tizimi, inflatsiya, moliyaviy resurslar, davlat byudjeti, xalqaro valyuta va investitsiya,taqsimlash,nazorat,inflatsiya,davlat moliyasi.